

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA TABASSUMXON SIDDIQJONOVNA

**HOZIRGI O‘ZBEK QISSALARIDA
BADIY NUTQ VA USLUB POETIKASI**

(Erkin A‘zam va Xurshid Do‘stmuhammad
qissalari misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

Mo'minova Tabassumxon Siddiqjonovna

Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy nutq va uslub poetikasi (Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissalari misolida)3

Mo'minova Tabassumxon Siddiqjonovna

Artistic speech and poetics of style in modern uzbek stories
(Erkin Azam and Khurshid Dostmukhammad in the case of stories).....28

Мўминова Табассумхон Сиддиқжонова

В современных узбекских историях художественная речь и поэтика стиля
(Эркин Аъзам и Хуршид Достмухаммад в случае историй).....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....58

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MO‘MINOVA TABASSUMXON SIDDIQJONOVNA

**HOZIRGI O‘ZBEK QISSALARIDA
BADIY NUTQ VA USLUB POETIKASI**

(Erkin A‘zam va Xurshid Do‘stmuhammad
qissalari misolida)

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2069 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) **Farg'ona davlat universiteti** veb-sahifasining www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yo'ldoshxo'ja SOLIJONOV,
filologiya fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Rasulova Umida Yo'ldosh qizi,
filologiya fanlari doktori.
Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "23" may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks.: (873) 244-44-02; faks: (+993873) 244-44-01; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (262 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 1500151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "10.05" kuni ___ tarqatildi.
(2023-yil "10" 05 dagi 13 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.M.Iskandarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor.

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., professor.

Z.B.Qobilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar tahliliga doir muammolarni badiiy nutq va uslub jihatdan o'rganish, uni anglash zarurati adabiyotshunosligimiz oldiga muhim va jiddiy masalalarni hal etish vazifalarini qo'yimoqda. Ijodkorning badiiy mahorati, badiiy asar tili va uslubdagi o'ziga xos ko'rinishlarini ma'lum janr ko'lamida, jumladan, qissa janri asosida o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida XX asr o'rtalaridan boshlab romandan keyingi yetakchilik qilgan qissa janrida ham voqelik, inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, hayot mohiyatini anglatishga ko'proq ahamiyat berildi. Ushbu janrda yaratilgan asarlarning tuzilishi, obrazlari, konflikt, psixologik tahlil, badiiy-tasviriy vositalari hamda mavzular ko'lamining kengligi janrning yangilanish tamoyillarini belgilab beradi. Tabiiyki, bu hozirgi adabiy jarayon, badiiy asarga to'g'ri yondashuv, nasrning qissa janri va uning badiiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'lish adabiyotshunoslikda o'ziga xos nazariy bilim va ko'nikma zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida bugungi globalashuv davrida jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarning bevosita aksi sifatida barcha janrlar singari qissa janridagi yangilanish tamoyillari, badiiy nutq va uslub poetikasi masalalari, ijodkorlarning uslubiy o'ziga xosliklarini o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab o'zbek milliy adabiyoti ham badiiy-estetik jihatdan yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu, albatta, istiqloq tufayli jamiyatimizning milliy tafakkuri rivojlanishi bilan bevosita bog'liq hodisadir. Jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti adabiyotning rivoji va ko'lamiga bog'liq. XX asr milliy tariximizga nazar solinsa, unda adabiyotshunoslarning tutgan o'rni ham, ularga munosabat ham muttasil ortib bordi. Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hozirgi kunda milliy o'zligimizni saqlab qolish, xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish va shu orqali mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun avvalambor adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashimiz zarur"¹ degan fikrlaridan adabiyot har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotganini anglash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3652-son Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Farmoni, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son qarori, 2021-yil 19-iyuldagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5188-son Farmon va qarorlari hamda

¹ Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: О'ZBEKISTON, 2022. – 269- б.

mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida eramizdan avvalgi davrlardan boshlab poetika, nutq va uslub masalalari, qissaning janr xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, Platon, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin, V.M.Golovko, V.Kojinov, L.S.Lixachev, N.D.Tamarchenko, L.B.Chernets, G.L.Abramovich, V.YE.Xalizev, M.B.Xrapchenko kabi faylasuf va olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mazkur masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan². Keyingi yillarda ham mazkur masala yuzasidan jahon adabiyoti miqyosida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan³.

O‘zbek adabiyotshunosligida nutq va uslub masalasi Alisher Navoiydan tortib, Fitrat, Cho‘lponlar ijodida o‘z aksini topgan. XX-XXI asrga kelib M.Qo‘shjonov, I.Sulton, S.Mamajonov, Y.Solijonov, G.Imomovalar nutq va uslub masalasining nazariy asoslari yaratilishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shgan⁴. Adabiyotshunoslar I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Boltaboyev, A.Rahimov, D.Quronov, B.Karimov, U.Hamdamiyov, U.Jo‘raqulov⁵ singari soha mutaxassislarining darslik,

² Афлотун. Давлат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 464 б.; Арасту.Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона. 2011. – 360 б.; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т.3. – М., 1978. – 271 б.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 б.; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – 240 б.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худлит-ра, 1975. – 502 с.; Головки В.М. Поэтика русской повести. – Саратов: 1992. – 276 б.; Кожинов В. Повесть. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 272; Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – М.: Худлит-ра, 1984. – 314 б.; Тамарченко Н.Д. Теория литературы / Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003; Чернец Л.Б. Введение в литературоведение. – М.: Высшая школа, 1976; Абрамович Г. Л. Введение в литературоведение. – М.: Учпедгиз, 1956; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 397 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – 407 с.

³ Трофимова Н.В. Поэтика древнерусского воинского повествования: монография – М.: МПГУ, 2017. – 274 с.; Anna Avaraki. Le sens esthétique de la pureté dans la poésie moderne et son rapport avec les arts. Esquisse d’une méthodologie comparatiste. Docteur de l’université – Paris VII (2012); Christine Boutevin. Le livre de poème(s) illustré : Étude d’une production littéraire en France de 1995 à nos jours et de sa réception par les professeurs des écoles. – Université Stendhal , Grenoble 3. 2019; Mathilde Walker. La parole poétique comme parole agissante. Étude de la poésie moderne francophone à la lumière de l’exégèse heideggerienne. Paul Valéry University, Montpellier 3. 2020; Hélène N’GBESSO. Nouvelles tendances de la poésie écrite. Niversite sorbonne nouvelle – Paris-3. 2020; Martin Mees. L’écriture de l’histoire chez Rancière: de la poétique romantique à la parole hérétique. Université Saint-Louis – Bruxelles. 2021.

⁴ Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент: Ўзадабий нашр, 1962. – 201 б.; Мамажонов С. Услуб жиллоллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 219 б.; Солижонов Ў. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насаида бадий нутқ поэтикаси. Филол.ф.д. дисс. – Тошкент, 2002. – 302 б.; Солижонов Ў. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. – 128 б.; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг роли: Фил. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 25 б.

⁵ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 272 б.; Қўшжонов М. Сайланма. – Тошкент: Шарк, 2018; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарк, 2004; Норматов У. Ижод

monografiya va dissertatsiyalarida poetika muammosi, nasr xususiyatlari, nutq hamda uslubga doir masalalar tadqiq etilgan.

Shuningdek, Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad ijodi bo'yicha e'lon qilingan bir qator tadqiqotlar, monografiyalar va dissertatsiyalarda bu adiblar ijodining o'ziga xosligi turli rakurslar orqali o'rganilgan. Masalan, M.Qo'chkorova "Erkin A'zam nasri va kinoyaviy badiiy shartlilik", O.Shofiyev "Erkin A'zamning badiiy mahorati", Sh.Toshxo'jayeva "Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi", N.Qobulova "Erkin A'zam nasrida davr va inson konsepsiyasi", M.Barotova "Erkin A'zam asarlarining bevosita inglizcha tarjimasiga xos xususiyatlar", G.Sattorova esa "90-yillar hikoyachiligida milliy xarakter muammosi", M.Pirnazarova "Hozirgi o'zbek romanlarida uslubiy izlanishlar", A.Eshniyazova "Istiqloq davri o'zbek qissachiligi va Xurshid Do'stmuhammad ijodining qiyosiy-tipologik tadqiqi", X.Raxmonovning "Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari badiiyati (obraz va tasvir)", tadqiqotlari shular jumlasidandir⁶. Erkin A'zam ijodi bo'yicha yozilgan dissertatsiyalarda adibning badiiy mahorati, ijodkor nasridagi kinoyaviy badiiy shartlilik, davr va inson konsepsiyasi, asarlari lingvopoetikasi hamda asarlarining bevosita inglizcha tarjimasiga xos xususiyatlar kabi masalalar yoritilgan. Xurshid Do'stmuhammadga oid dissertatsiyalarda esa, adibning hikoyalaridagi milliy xarakter, "Bozor" romanidagi uslubiy izlanishlar, shuningdek, qissalarining qiyosiy-tipologik tadqiqi singari muammolarning ilmiy tahliliga e'tibor qaratilgan. Shunga qaramay, Erkin A'zam hamda Xurshid Do'stmuhammad ijodi asosida hozirgi o'zbek qissalarida badiiy nutq va uslub poetikasi nazardan chetda qolgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq poetika va badiiy nutq muammolari mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Erkin A'zam hamda Xurshid Do'stmuhammad qissalarida nutq rang-barangligining o'ziga xosligi va uslub poetikasini, badiiy

сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007; Расулов А. Танкид, талкин, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Раҳимов А. Ўзбек роман поэтикаси /сюжет ва конфликт/: Филол. Фанлари д-ри...дис, автореф, – Тошкент, 1993. – 52 б; Курунов Д. Чўлпон поэтикаси. Насрий асарлари мисолида: Филол.фанлари д-ри. – Тошкент, 1998. – 284 б.; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 87 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф, жанр, хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – 256 б.

⁶ Қўчқорова М. Эркин Аъзам насри ва киноявий бадий шартlilik / Эркин Аъзам бадий олами (илмий мақолалар ва суҳбатлар тўплами). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 81-96. Шофиев О. Эркин Аъзамнинг бадий маҳорати. Монография. – Turkiya:MerAK Publishing House, 2020; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Фарғона, 2017. Қобулова Н. Эркин Аъзам насрида давр ва инсон концепцияси. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Самарқанд, 2020; Баротова М. Эркин Аъзам асарларининг бевосита инглизча таржимасига хос хусусиятлар.Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Бухоро, 2020. – 56 б.; Эшниязова А. Истиклол даври ўзбек қиссачилиги ва Хуршид Дўстмухаммад ижодининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Тошкент, 2020. – 54 б.; Рахмонова Х. Хуршид Дўстмухаммад хикоя ва қиссалари бадийати (образ ва тасвир). Филол.фанл. б-ча фалсафа доктори PhD дис.автореф. – Тошкент, 2021. – 53 б.

nutq imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini qiyosan tahlil va tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hozirgi o‘zbek adabiyotida qissaning yangilanish tamoyillarini aniqlash;

hozirgi o‘zbek qissalaridagi badiiy nutq va uslub poetikasining o‘ziga xosligini nazariy jihatdan asoslash;

qissa janrida ijodkorlarning badiiy nutq imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini ochib berish;

Erkin A‘zam va Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida badiiy nutq tiplari, turlari va shakllarining rang-barangligini ilmiy jihatdan asoslab berish;

hozirgi o‘zbek qissalarida nuqtai nazar va xarakter ko‘rinishlarining o‘ziga xosligini aniqlash;

har ikki yozuvchining uslubini aniqlashda asar qahramonlari portreti, ruhiy holati, peyzaj kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yozuvchi Erkin A‘zamning “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Javob”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Guli-Guli”, “Shoirning to‘yi”, “Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati”; Xurshid Do‘stmuhammadning “Nigoh”, “Panoh”, “Oromkursi”, “Chayongul yoxud quyiqishloqcha qotillik”, “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz”, “So‘roq”, “Kuza”, “Katta ko‘cha”, “Yolg‘iz” kabi qissalari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning predmetini yozuvchi Erkin A‘zam hamda Xurshid Do‘stmuhammad qissalarining badiiy nutq va uslubi poetikasini qiyosiy o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda struktural, qiyosiy-tipologik, psixologik, biografik metodlar, germeneytik yondashuv hamda tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi o‘zbek adabiyotida qissa janriga xos tamoyillar, ya‘ni makon va zamon, mavzu, qahramon, mazmun, shakl, talqin hamda tadqiqotimiz obyekti hisoblangan qissalar misolida monologik, dialogik, qissaxonlik, ikki ovozli, ko‘p ovozli nutq, bayon va ohanglar xilma-xilligi, iboralarning zarbli, ritmik siqqlik uslubi, leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to‘yingan muallif nutqi singari rang-barang shakllari tadqiq etilgan;

Erkin A‘zam va Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida yozuvchilarning ijodiy-individual uslubi va ularga xos inson tabiatini, fazilat va qusurlarini boricha aks ettirish, zamonaviy-badiiy talqindagi yangi inson obrazini yaratish, inson va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni kinoya usulida ochib berish, inson hissiy-ruhiy kechinmalarini ramziy ifodalash kabi badiiy ifodaning uslubiy imkoniyatlari aniqlangan;

o‘rganilayotgan qissalarda muallif, “men” hikoyachi, qahramon va o‘zganing nuqtayi nazari dalillanib, olamni badiiy idrok etish va uni ifodalash bilan bog‘liq E.A‘zam asarlarida muallif nutqi bayoniga qahramon ovozini olib

kirish, bayon ohangini, nutq manerasini, ohang yo‘nalishini bir tizimga solish, X.Do‘stmuhammad esa, adabiyotda qahramon “men”ini tasvirlash, ongidagi evrilishlarni ko‘rsatish uchun qahramon nutqi, ruhiy-ma’naviy olamini ifodalash, muallif va qahramonlarning bir-birini kuzatish kabi farqlari yoritilgan;

har ikki yozuvchining uslubini aniqlashda qahramonlar ruhiy holatini ifodalashda portret, peyzaj singari badiiy tasvir vositalaridan metafora, allyuziya, timsolli ishora, ramziy-ishoraviy detal, istiora, o‘xshatishlardan foydalanish mahorati misollar va tahlillar yordamida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o‘quv yurtlarining talaba va magistrantlari uchun adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, qissa poetikasi, nutq tiplari muammolari bo‘yicha ma‘ruza matnlari va qo‘llanmalar tayyorlashda;

magistrant va doktorantlar uchun badiiy nutq, uslub muammolariga bag‘ishlangan kurslar bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qishda;

Prezident va ijod maktablari o‘quvchilarida badiiy asar tilini tahlil etish malakasini shakllantirishda;

oliy o‘quv yurtlari, maxsus maktablar hamda maktab o‘qituvchilari malakasini oshirish kurslarida ma‘ruzalar o‘qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, qo‘llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi bo‘yicha, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiladigan adabiyotshunoslikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish ishiga mazkur tadqiqot natijalarining tadbiq etilishida ko‘rinadi. Tadqiqotning nazariy xulosalari badiiy asarni sistem butunlik sifatida o‘rganish, uni san‘atning boshqa turlari bilan o‘zaro aloqasini tadqiq etishda manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotshunoslik lug‘atlaridagi mavjud sharh, izohlarga qo‘shimchalar kiritish va takomillashtirishda, zamonaviy o‘zbek qissachiligining badiiy tafakkur tadrijini ko‘rsatishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy o‘zbek qissachiligidagi badiiy sintezga oid tahlil natijalaridan adabiyotshunoslik fanlaridan o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanish mumkin. Tadqiqotda olingan natijalar barkamol shaxsni tarbiyalash va milliylik tasviri orqali milliy mustaqillik g‘oyasini singdirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy nutq va uslub bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalaridan:

hozirgi o‘zbek adabiyotida qissa janriga xos tamoyillar hamda ushbu janrning tadqiqot obyektlarining qissalari misolida monologik qissaxonlik va ikki ovozli hikoya qilish, ko‘p ovozli bayon, ohanglar xilma-xilligi va iboralarning zarbli, ritmik siqqlik uslubi, leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to‘yingan muallif nutqi singari rang-barangligiga oid xulosalardan 2020-2021-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy

raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi FZ-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2022-yil 8-sentabrdagi 1/04-29-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha o'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishda milliy mentalitetni inobatga olishga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissalarida yozuvchilarning ijodiy-individual uslubi va ularga xos inson tabiatini, fazilat va qusurlarini boricha aks ettirish, zamonaviy-badiiy talqindagi yangi inson obrazini yaratish kabi badiiy ifodaning uslubiy imkoniyatlari va tavsiyalaridan Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida o'qitiladigan umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan "O'zbek adabiyoti" darsliklarida, 2020-2021-yillarda Qozog'iston o'zbek etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" hamjamiyati qoshidagi "Ijodkor" adabiy uyushmasining targ'ibot faoliyatida, xususan, birlashma tomonidan o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferensiyalar hamda o'zbek adabiyotiga, o'zbek va qozoq olimlarining ilmiy-ijodiy hamkorligiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy tadbirlarda foydalanilgan; Natijada Qozog'iston o'zbek etnomadaniy birlashmalari "Do'stlik" hamjamiyati qoshidagi "Ijodkor" adabiy uyushmasi tomonidan o'tkazilgan konferensiyalar ilmiy-nazariy jihatdan boyitildi;

badiiy nutq va uslubiy individuallikni belgilashda milliy mentalitetni inobatga olishga oid xulosalardan "Jadid adabiyoti tarixi" nomli darslikni tayyorlashda keng foydalanilgan. Natijada darslik ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Farg'ona davlat universitetining 2022-yil 28-dekabrdagi 01-5335-son ma'lumotnomasi);

olamni badiiy idrok etish va uni ifoda etish bilan bog'liq E.A'zam asarlarida muallif nutqi bayoniga qahramon ovozini olib kirish, bayon ohangini, nutq manerasini, ohang yo'nalishini bir tizimga solish, X.Do'stmuhammadda esa, adabiyotda qahramon "men"ini tasvirlash, ongidagi evrilishlarni ko'rsatish uchun qahramon nutqi, ruhiy-ma'naviy olamini ifodalash, muallif va qahramonlarning bir-birini kuzatish kabi farqlari bo'yicha tayyorlangan materiallardan "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston" teleradiokanalining 2022-yil 23-iyundagi 04-36-987-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning zamonaviy o'zbek qissachiligining bugungi yutuq va kamchiliklari, yozuvchi badiiy mahorati haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga erishilgan;

yo'zuvchining uslubini aniqlashda qahramonlar ruhiy holatini ifodalashda portret, peyzaj singari badiiy tasvir vositalaridan metafora, allyuziya, timsolli ishora, ramziy-ishoraviy detal, istiora, o'xshatishlardan foydalanish mahoratiga oid ma'lumotlardan 2022-yil iyul, avgust oylari mobaynida "Toshkent" teleradiokanalining "Gap chiqdi", "Hikmatli dunyo" ssenariylarini yozishda foydalanilgan ("Toshkent" teleradiokanalining 2022-yil 24-avgustdagi 02-02-177-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarda berilgan ilmiy natijalar

tomoshabinlarning hozirgi o'zbek tilida adabiy nutq va uslub, nutqda inson fe'l-atvori, ruhiyatining aks etishi, ramziylik va falsafiylikning ifodalanishi bilan bog'liq bilimlarning ortishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 5 ta respublika konferensiyasida, xususan, "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani (Andijon, 2013) "Nutq madaniyati va tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (Farg'ona, 2016); ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag'ishlangan "Badiiyat ummoni" nomli ilmiy maqolalar to'plamida (Farg'ona, 2017); "Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Farg'ona, 2018); "XXI asr o'zbek uslubshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy anjuman (Samarqand, 2021)da; 4 ta xalqaro konferensiyada, xususan, "Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (Farg'ona, 2018); "Adabiy aloqalar va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro anjuman (Farg'ona, 2018); "Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman (Buxoro, 2021); "Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning innovatsion yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (Farg'ona, 2022)da ma'ruza shaklida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti faslni o'z ichiga oluvchi uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy nutq, uslub poetikasi va uning nazariy masalalari**" deb nomlangan. Bobning "**Hozirgi o'zbek adabiyotida qissaning yangilanish tamoyillari**" nomli birinchi faslida o'zbek adabiyotida qissaning yangilanishi va taraqqiyoti tahlilga tortilgan. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy nutq va uslub poetikasi masalalarini o'rganish, tadqiq qilish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Chunki

“poetika” mahorat so‘ziga teng bo‘lib, ijodkorning yuksak badiiyligi uning o‘ziga xos uslubida namoyon bo‘ladi. Badiiy nutq esa yozuvchi uslubini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Bu, ayniqsa, so‘nggi yillarda badiiylarning yuksak bosqichiga ko‘tarilgan qissa janri misolida aniq ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan adabiyotshunos olimlar tomonidan qayta-qayta murojaat qilinayotgan bo‘lishiga qaramay, qissaning kelib chiqishi, janr sifatida shakllanishi, rivojlanishi hamda yangilanish tamoyillari haqidagi fikrlar dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qissa dastlab inson yaratilishiga doir xabar, ixcham shaklda Qur‘on sahifalariga jo bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, ilk bor Qur‘oni Karim tarkibida qo‘llanilib, payg‘ambarlar qismatidan ilohiy xabar bergan. Shuningdek, “Qur‘ondagi 28-sura nomi “Qasas”, ya‘ni “Qissa” deb nomlanadi. Ko‘rinadiki, qissa so‘zi faqat suralar tarkibida emas, alohida nom tarzida ham berilgan. Bu, nazarimizda, uning salmog‘i, darajasi, manfaatiga ishora bo‘lib, insoniyat yaralishidan oxiriga qadar bo‘lgan tilsimu sinoatlar mohiyatini jamlagani bilan ta‘riflanadi. Unda bir yo undan ko‘p inson qismati turli makonu zamon o‘lchovida taqdim etiladi”⁷. Ma‘lumki, o‘zbek adabiyotida qissa janri uzoq tarixga ega. O‘rta asrlar yozma manbalarida mavjud bo‘lgan, u davrlarda “xalq kitoblari” deya atalgan qissalar zamonaviy qissa janrining yuzaga kelishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Asarning yagona qahramon sarguzashtlariga asoslanishi, qahramon hayotiga doir muayyan voqeaning qamrab olinishi qissa janrining o‘ziga xosligini ta‘minlovchi omillar hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizdan “Qisasi Rabg‘uziy”, “Tarixi anbiyo va hukamo” kabi asarlar buning yorqin misolidir.

XX asr o‘zbek adabiyotida qissa janri alohida o‘rin egalladi. O‘zbek nasrining Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi zabardast adiblari realizm metodi asosida qissa janrining jahon andozalariga mos, zamonaviy talablariga javob bera oladigan namunalari yaratdilar va o‘zbek qissachilik taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. Ularning an‘analarini Asqad Muxtor, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, O‘lmas Umarbekov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Ne‘mat Aminov singari yozuvchilar davom ettirgan.

O‘zbek adabiyotidagi ko‘plab dissertatsiyalar⁸ hamda turli yo‘sindagi tadqiqotlarda⁹ bir qancha qissalar tahlili, qissanavislikdagi mahorat va bu janr bilan

⁷ Расулова У. XX аср ўзбек киссачилиги (Поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фанлари д-ри...дисс. автореферат – Тошкент, 2020. – 13- бет.

⁸ Каттабеков А. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной узбекской прозе: Дисс. ... докт. филол. наук –, 1985; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): Филол. фанлари докт. ... дисс. – Тошкент, 1994; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фанлари докт. ... дисс. – Тошкент, 2002; Мурадов Г. Исторический факт и художественный вымысел (на материале узбекской советской литературы о Бухарской революции): Дисс. ... канд. филол. наук – Тошкент, 1988; Жўраев Т.С. Онг оқими ва тасвирийлик (М.М.Дўст, Ғ.Ҳотамов, О.Отахон асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент., 1994; Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2004; Тўлаганова У. Тоғай Мурод насрида ритм : Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2005.

⁹ Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969; Мамажонов С. Теранлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987; Мамажонов С. Услуб жилolari. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. -219 б.; Иброҳимова Р. Ўзбек фантастикасидаги услубий изланишлар // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва

bog‘liq turli muammolar to‘g‘risida muhim fikrlar bildirilgan. Qissa janrining o‘ziga bog‘ishlangan ishlarda esa ko‘proq shu janr bilan bog‘liq aniq masalalar tadqiq etiladi. Shuningdek, ayrim olingan muammolarni aniq bir yozuvchi ijodi misolida o‘rganishga bog‘ishlangan nomzodlik ishlari ham¹⁰, umuman qissanavislik tajribalarini umumlashtirishga bog‘ishlangan ishlar¹¹ ham amalga oshirilgan.

XX asr so‘nggi choragida yaratilgan o‘nlab qissalar ham ilmiy-adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otib, bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan. Bu haqda I.Sultonov, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, B.Nazarov, U.Normatov, E.Karimov, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, N.Xudoyberganov, A.Abrorov, A.Rashidov, I.G‘afurov kabi taniqli adabiyotshunoslarning qimmatli mushohadalari mavjud¹².

XX asrning 70-80-yillarida qissa janri jadal taraqqiy etdi. N.Aminov, S.Siyoyev, Sh.Xolmirzayev, O‘.Hoshimov kabi tajribali ijodkorlar qatoridan E.A‘zamov, M.M.Do‘st, T.Murod, X.Do‘stmuhammad, X.Sultonov, G‘.Hotamov, A.Saidov, B.Murod Ali, Sh.Bo‘tayevlar o‘z ijod namunalari bilan zamonaviy

услуглар ранг - баранглиги. – Тошкент, 1983. – Б.193-205; Ниятов Ч. Ҳозирги ўзбек прозасида характер проблемаси. – Тошкент: Фан, 1984; Норматов У. Ижод эстафетаси ишончли кўлларда // Адабиётимизнинг ярим асри. – Тошкент, 1967. - Б. 511-548; Норматов У. Насримиз уфқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974; Расулов А. Ардокли адиб (Ўткир Ҳошимов ҳаёти ва ижодига чизгилар). – Тошкент: Шарқ, 2001; Кўшжонов М. Ҳаётнинг илғор тенденциялари гўзалдир // Адабиёт назарияси. – Тошкент, 1979. Т. II. – Б. 160-164; Умутов Ҳ. Қаҳрамоннинг маънавий олами ва эпиклик. – Тошкент: Фан, 1995;

¹⁰ Каримова Ю.А. Пиримқул Қодиров қиссаларида маънавий-ахлоқий муаммоларнинг бадиий талқини: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2005.

¹¹ Абров А. Ўзбек повести. – Тошкент, 1973; Рустамова М.Ю. Истиклол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2005.

¹² Кўшжонов М. Қалб ва қиёфа. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Кўшжонов М. Доим изланишда. Ижод сабоқлари. – Тошкент, 1973. – 155-163 б.; Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983; Шарафиддинов О. Ижод довлари оша // Истеъдод жиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 183-228; Шарафиддинов О. Дунёда офтоб борки // Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.334-344; Шарафиддинов О. Ҳажвийга садоқат. Қаҳқаҳа. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 5-18; Шарафиддинов О. Эл ардоқлаган адиб // Ў.Ҳошимов. Баҳор қайтмайди: Сайланма. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б.5-24; Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Мамажонов С. Сайланма. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999; Норматов У. Ҳозирги қиссалар поэтикасига доир // Насримиз уфқлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б.45-64; Норматов У. Насримиз аънавалари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. – Тошкент, 1976; Норматов У. Қиссадан қиссалар // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 3. – Б.157-160; Каримов Э. Ўзбек совет адабиётида повесть жанри // Адабий турлар ва жанрлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.109-167; Худойберганов Н. Кўнгил рози // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. – 12 окт.; Худойберганов Н. Меъёр ва тасвир (Ёшлар қиссачилигининг баъзи муаммолари) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1983. – 28 январь.; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. - Б. 248; Худойберганов Н. Сўз курашга чорлайди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Худойберганов Н. Ишонч. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988; Назаров Б. Адаш Карвон изтироблари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1983. – 10 июнь; Назаров Б. Ҳаётийлик безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Рашидов А. Ишчи – қиссаларимиз қаҳрамони. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980; Гафуров И. Бадиий воқеликнинг ўзига монанд тил // Ўттиз йил изҳори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987; Содиқов С. Ёшлар қиссачилиги ҳақида ўйлар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1983. – 12-сон. – Б.160-165; Улуғов А. Қалб таҳлили: кейинги қиссаларга бир назар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1988. 8 апрель.

o‘zbek qissachiligiga yangi mavzu, yangi qahramon, yangicha talqin va o‘ziga xos konsepsiyalarni olib kirdilar.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yozuvchilar tomonidan badiiy asarga tanlab olingan makon va zamon, mavzu, asar qahramonlari hamda ularni tasvirlash bayon usullari hozirgi o‘zbek adabiyotida qissa janrining yangilanish tamoyillarini belgilashda qiyoslash imkonini beradi. Buni quyidagi jadval yordamida yaqqolroq tasavvur qilish mumkin:

Manbasi	Mavzu	Qahramonlar toifasi	Bayon uslubi
Qur’oni Karimda	ilohiylik	payg‘ambarlar; sahobalar	ilohiy xabar
Xalq og‘zaki ijodida	qahramonlik	pahlavonlar	bo‘rttirish; sifatlash; xayolotga erk berish
Mumtoz adabiyotda	qahramonlik	darveshlar; zohidlar	romantizm; tarixiylik;
XX asr o‘zbek adabiyotida (asr boshlaridan 80-yillargacha)	ilmsizlik; urush; mehnat; kolxoz qurilishi.	mehnatkashlar; ziyolilar; ishbilarmonlar; mansabdorlar	realizm
Hozirgi o‘zbek adabiyotida (XX asrning 80-90-yillari)	ijtimoiy-maishiy; zamonaviy voqelikning badiiy in’ikosi; tabiat; bozor;	dehqonlar; paxtakorlar; oddiy odamlar; yangi inson.	realizm; modernizm
Yangi asrning 20-yili	ong oqimi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, islomiy qadriyatlar	ziyoli, yosh avlod, e’tiqodli inson, munis ayol	an’anaviy, sharqona, postmodernizm

Ushbu jadval asar yaratilgan davr hamda yozuvchilarning o‘ziga xos uslublariga ko‘ra nisbiylik xususiyatiga ega bo‘lib, uni to‘ldirish va takomillashtirish ham mumkin. Biz hozirgi o‘zbek adabiyotida qissaning yangilanish tamoyillarini tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ikki yozuvchi asarlari misolida quyidagicha belgilashni lozim topdik:

– **insonning fe’l-atvorini boricha aks ettirish:**

(Erkin A‘zam “Otoyining tug‘ilgan yili”; Xurshid Do‘stmuhammad “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz”);

– **inson ruhiyatidagi murakkabliklarni tadqiq etish:**

(Erkin A‘zam “Bayramdan boshqa kunlar”; Xurshid Do‘stmuhammad “Nigoh”, “Panoh”, “Chayongul yoxud quyiqlik qotillik”);

– **yangi inson obrazini tadqiq etishda jahon adabiyoti an’analarini sintez qilish:**

(Erkin A‘zam “Javob”; Xurshid Do‘stmuhammad “Kuza”);

– **inson va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni piching va kinoya usulida ochib berish;**

(*Erkin A'zam "Shoirning to'yi", "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati"; Xurshid Do'stmuhammad "Yolg'iz";*

– ***inson qalbidan o'tayotgan kechinmalarni shartlilik, ramziylik, majoziylik usullarida aks ettirish:***

(*Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli", "Guli-guli"; Xurshid Do'stmuhammad "So'roq", "Katta ko'cha";*

Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissalaridagi ushbu bayon usullari zamonaviy o'zbek qissa janrining yangicha tamoyillarini boyitishga xizmat qildi.

Birinchi bobning **“O‘zbek adabiyotshunosligida nutq va uslub masalalari”** deb nomlangan ikkinchi faslida hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida nutq va uslub masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Adabiyotshunoslikda nutq va uslub masalalari uzoq tarixga borib taqaladi. Hamidullo Boltaboyev “Sharq mumtoz poetikasi” nomli kitobida badiiy nutq masalasi yuzasidan qadimgi davr arab olimlaridan Johiz, Ibn Mu'tazz va Qudama ibn Ja'farlarning ham badiiy matn bo'yicha nazariy fikrlarini izohlaydi. mavjud ekanligini quyidagicha izohlaydi. Xususan, arab olimlaridan Johizning “Kitabu-l-bayon” va “Kitabu-l-hayvon” (“Jonzodlar kitobi”) asarlarida turli tarixiy, jug'rofiy, tibbiyot masalalari orasida nutq madaniyati, notiqlik san'ati va badiiy asardagi muallif nutqi kabilarga doir fikrlar ham keng bayon etilgani haqida ma'lumotlar beradi.

Badiiy nutq tiplari, tur va shakllari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish rus adabiyotshunosligida izchil yo'lga qo'yilgan bo'lib, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, M.B.Xrapchenko, N.K.Gey, M.M.Baxtin, A.Fyodorov, V.Kojinov, V.V.Odinov kabi yirik olimlar o'z tadqiqotlarida bunga alohida to'xtaladilar. O'zbek tadqiqotchilari esa birinchi galda ular yaratgan manbalarga tayanadilar, ularning tezislari va xulosalaridan foydalanadilar. Bular orasida, ayniqsa, M.M.Baxtinning “Dostoyevskiy poetikasi muammolari” deb nomlangan fundamental monografiyasi alohida o'rin tutadi. Haqiqatan ham, o'zbek adabiyotidagi nazariy qarashlar rus adabiyotshunosligining manbalariga asoslangan. Professor Y.Solijonov badiiy nutq tiplari va shakllarining tadriji, yangilanish jarayoni, uning o'zbek nasrida tutgan o'rni bo'yicha birinchilardan bo'lib tadqiqot olib bordi¹³.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, Y.Solijonov tadqiqoti boshqa tadqiqotlardan badiiy nutqning tip, tur va shakllari rang-barangligi va ularning asardagi vazifalari batafsil yoritib berilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, avtor va qahramonlar nutqining ikki ovozli, avtor bayonining dialog asosiga qurilishi natijasida paydo bo'ladigan ko'p ovozli nutqning o'ziga xos ko'rinishlari haqidagi ilmiy qarashlari ahamiyatlidir. Shuningdek, O'.Hoshimov, O.Muxtor, M.M.Do'st romanlarida chorrahali xarakteristika va kinemotografik bayon usullari mavjudligini birinchi marta ta'kidlagan. Shuningdek, S.Mamajonov, A.Rahimov, D.To'rayev, G.Imomova, Z.Rahimovlarning tadqiqotlarida ham

¹³ Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол.фанл.д-ри. дисс-си – Тошкент, 2002. – 300 б.

adabiyotshunoslikning muhim masalari bilan birga badiiy nutqning turlari bo'yicha mulohazar yuritilganligi to'g'risida eslab o'tish zarur¹⁴.

G.Imomova tadqiqotida adabiyotshunoslik nazariyasi bo'yicha yaratilgan darsliklarda berilgan muallif va qahramon nutqi ta'riflarini yetarli hisoblab, shu bilan kifoyalanadi. Z.Rahimovning muallif nutqiga oid tasnifini ko'rib o'tdik. Qahramon nutqini tasniflashda esa, bir oz farqli yondashuv kuzatiladi: "Muallif nutqi ko'rinishlari kabi personaj nutqi ham o'z ichida bir necha turlarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

a) ichki nutq; b) tashqi nutq; v) dialogik nutq; g) parallel nutq; d) personajning yozma nutqi"¹⁵.

Biz asoslanayotgan tasnifga ko'ra alohida tip sifatida ajratib ko'rsatilgan turlar adabiyotshunos Z.Rahimov tomonidan personaj nutqining ichki turlariga bo'linyapti. Ushbu ma'lumotni keltirishdan maqsad, turlicha tasniflar mavjudligini ta'kidlashdir. Mazkur tadqiqot davomida barcha turlarning izohlari berilgan.

Poetik uslub mohiyatini o'rganish uzoq tarixga ega bo'lib, Arastu davridan boshlangan. Olimning "Poetika" asari ijodkor o'ziga xosligiga bag'ishlangan.

Deyarli hamma tadqiqotlarda ijodkor uslubi, birinchi navbatda, u yaratgan poetik timsollarda yaqqol ko'zga tashlanishiga e'tibor qaratilgan. So'nggi qo'llanmalarda, jumladan, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da "Uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi"¹⁶, – degan ta'rif mavjud.

Uslub to'g'risida dastlab Fitrat asosli fikrlarni bayon qilgan. Har bir ijodkorning o'zgaga o'xshamaydigan o'ziga xos uslubi bo'ladi. Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobida uslub haqida sodda va aniq ifodalab berilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Jumladan, bu bo'yicha quyidagicha izchil tushuntirishlar bor: "Uslubning adabiyotdagi o'rnini juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilgan bo'lishi mumkindir, ularning bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o'quta olg'an kuch uslubdir"¹⁷. Haqiqatan, hech bir ijodkor aynan bir-birini takrorlamaydi.

Yozuvchi uslubining shakllanishida uning hayotni, hayotning mohiyatini, hayot qa'ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi muhim sanaladi. Bu – uslub uchun eng zarur omillardan biri. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san'ati – ruhiyat bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir. Yozuvchining dunyoni anglashi, insonning qalbini tushunishi va ifodalay olishi, asarini kitobxonga o'qishli qila olishi ham bir san'atdir. Har bir

¹⁴ Мамажонов С. Фафур Гулом прозаси. – Тошкент: Фан, 1965. – 226 б; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси / сюжет ва конфликт / : Филол, фанлари д-ри... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 52 б; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси / 60-80-йиллар / : Филол. фанлари д-ри... дис. автореф. – Тошкент, 1994. – 53 б.; Имомова Г. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг роли: Фил. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 25 б.; Раҳимов З. Одил Ёқубовнинг "Кўхна дунё" романи поэтикаси: Фил. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 2000. – 137 б.

¹⁵ Раҳимов З. Одил Ёқубовнинг "Кўхна дунё" романи поэтикаси: Фил. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 2000. – 24-25- б.

¹⁶ Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшunosлик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 339- б.

¹⁷ Фитрат А. Адабиёт қоидалари – Тошкент, 1995. – 10- б.

yozuvchining uslubi uning xarakteri va dunyoqarashining mahsulidir. Shuning uchun asarlarni o'qiganimizda dunyoqarashimiz yozuvchi saviyasiga qarab o'zgaradi. Uning mahorati bizni o'qishga bo'lgan ehtiyojimizni oshiradi yoki pastlatadi. Shu o'rinda Abdug'afur Rasulovning "Uslub – o'zlik, betakrorlik, san'atkorlik pasporti. Uslub – iste'dod portreti"¹⁸ degan nazariyasi fikrimizni yanada dalillaydi. Demak, har bir yozuvchining o'z shaxsiy uslubi mavjudki, unda o'zining aksi ko'rinadi. Erkin A'zam ijodida ham, Xurshid Do'stmuhammad ijodida ham turli uslub yo'nalishlariga xos jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Ishning ikkinchi bobi "**Qissa janrida badiiy nutq ko'rinishlari**" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "**Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad qissalarida badiiy nutq tiplari, turlari va shakllarining rang-barangligi**" deb atalib, so'nggi yillarda yozilib, kitobxonlar e'tiboriga tushgan asarlar o'zbek adabiyotida yozuvchilik mahorati va mas'uliyatini anglagan adiblar kam emasligini ko'rsatadi. Bu adiblar, nazarimizda, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon jasoratining davomchilari bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad mana shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. Erkin A'zam hamda Xurshid Do'stmuhammad qissalarida badiiy nutq tiplari, turlari, shakllarining rang-barangligi – ularning olamni qanday badiiy idrok qilishlariga bog'liq ekanligi asarlarini tadqiq etish jarayonida aniq bo'ladi. Yozuvchi nutqining rang-barangligi asarlarining badiiy jihatdan pishiq-puxtaligini belgilab beradi. Haqiqatan ham, Erkin A'zam asarlarida so'z tanlash va uni badiiy asar g'oyasiga mos holda matn tarkibiga joylash, badiiy fikr va g'oyani o'ziga xos ohangda bayon etish yozuvchining individual salohiyati va mahoratiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Erkin A'zamning badiiy bayon uslubi o'zining soddaligi, ixchamligi va xalqoniyligi, dabdabali, balandparvoz, ko'tarinki ruhdagi iboralarning kam qo'llanilganligi bilan e'tiborni tortadi.

Masalan, uning "Javob" qissasida muallif va qahramon qarashlari bilan reallik o'rtasidagi munosabatlarida kinoyaviylik bir qadar ko'zga tashlansa, "Otoyining tug'ilgan yili"da kinoya sarkazm darajasiga ko'tariladi. "Ta'ziya"da ham mustabid tuzum ijtimoiy muhiti odamlari tushib qolgan vaziyatlarda kinoyaviylik kuzatiladi. "Javob" qissasi matnida ham kinoyaning bir necha ko'rinishlari uchraydi. Bu, ayniqsa, Elchiyevning o'g'li Kamoliddin va do'sti Haydarning munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu nutq dialogik nutq tipining tavsifiy dialog turi bo'lib, muallifning keng izohlari bilan berilgan. YA'ni muallif nutqida Elchiyev va Kamoliddinning ayni suhbat vaqtidagi holatlari izohlanib, qahramonlarning ota va o'g'il sifatidagi ruhiy holatlari tasvirlanmoqda. Dialogdagi aynan o'g'li Kamoliddinning otasi "*Kimga o'xshading?*" deb bergan savoliga "Sizga o'xshadim, dadajon, sizga!" degan javobi otasiga nisbatan ham kesatq, ham achchiq kinoya bo'ladi. Sababi, bir vaqtlar otasi o'g'lini do'sti Haydarning qiziga uylantirmoqchi bo'lgani, ammo kun kelib bu ishning amalga oshmaganida otasini ayblar edi. Chunki Haydar o'zi kabi obro'li professor Qoriyev bilan quda bo'lmoqchi. Elchiyev esa uning yoshlikdagi kursdosh do'sti bo'lib qolgan edi, xolos. U shunchaki mansab, yuqori lavozimlarga intilmadi.

¹⁸ Расулов А. Услуб – истеъдод портрети – Тошкент, 2013 – 105- б.

Kamoliddinning otasiga javobi bir bo‘ldi-yu, Elchiyevning o‘g‘liga aytgan “*Rahmat, o‘g‘lim, rahmat*” so‘zlari bir bo‘ldi. Bunda ham kinoyaning yengil shaklini ko‘rishimiz mumkin.

Nutq ohangida kinoyaning ustuvorligi “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida yanada yaqqolroq seziladi. Qissada pakana oshiq nutqi kinoya va parodiya darajasiga olib chiqilgan. Qissadagi nutq jonli dialog turi bo‘lib, trolleybuschi asar qahramonining ismini so‘ragandagi “*Mening otim Pakana*”, “*Ming aytganim bilan baribir meni pakana deb o‘ylayverasan*” deya bergan javobi ham kulgi, ham kinoyani ifodalamoqda. Qissa qahramoni Pakana o‘zining pakanaligiga hamda atrofidagi odamlarning unga nisbatan domiy munosabatiga shu darajada ko‘nikdiki, hatto ismini ham “*Pakana*” deb aytmoqda. Buning ortida uning taqdirga nisbatan achchiq kinoyasi tasvirlanmoqda.

Nutq va uning inson shaxsiyati bilan bog‘liqlik xususiyatlari haqida mutafakkirlar turli zamonlarda turlicha, ammo mantiqan bir-biriga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, mashhur rus bolalar adibi Korney Chukovskiy bu haqda: “Nutq har birimizni har qanday pasportdan ko‘ra yaxshiroq ko‘rsatadi”¹⁹ deydi. Har bir yozuvchi yaratgan asarini unga tegishli nutq deb hisoblasak, asarni o‘qib qaysidir ma‘noda adiblarni anglagandek bo‘lamiz. E.A‘zam va X.Do‘stmuhammadlarning qissalarida ilgari surgan g‘oyaviy maqsadlarida ham ularning o‘zigagina xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlari anglashiladi. Tadqiqotimiz davomida Xurshid Do‘stmuhammad o‘zigacha qissa janrining eng yaxshi namunalarini yaratgan barcha adiblarning ijodlarini sinchkovlik bilan o‘rgangani ayonlashdi. Jumladan, A.Qodiriy, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Muxtor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Hoshimov, M.Muhammad Do‘st, E.A‘zam, A.A‘zam ijodi, qolaversa, G‘arb qissachiligining ilg‘or ijodiy ana‘analarini o‘zlashtirgan. Bunga qissa qahramonlarining kechinmalari ong oqimi ostida mukammal ifodalangani misol bo‘la oladi. Aytish kerakki, E.A‘zam va X.Do‘stmuhammadlarning deyarli barcha qissalari muallif nutqi bilan boshlanadi va ohang bir pardada emas, balki musiqa notalari singari o‘zgarib, kuchayib, pasayib boraveradi. Buning barchasi bayonning uzluksizligini, kompozitsion yaxlitligini ta‘minlashga yordam beradi.

Erkin A‘zam hamda Xurshid Do‘stmuhammad qissalarini badiiy nutq va uslub poetikasi nuqtayi nazaridan qiyosan o‘rganish har ikki muallifning o‘ziga xosligi va badiiy mahoratini ochib berishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Yozuvchilarning muallif, personaj nutqi, monolog va dialoglardan foydalanish mahorati**” deb atalgan. Erkin A‘zam hamda Xurshid Do‘stmuhammad qissalari badiiy nutq rang-barangligi bilan badiiy nutq shakllarining yangilanishiga o‘z hissalarini qo‘sha olgan adiblardandir. Har ikki adib qissalarida badiiy nutqning muallif, personaj nutqi, monolog va dialog singari deyarli barcha turlaridan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Erkin A‘zamning “Javob” qissasi bevosita va bilvosita muallif bayoni asosiga qurilgan. Qissada bilvosita muallif nutqida o‘zganing nutqidan foydalanib, o‘quvchini asarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy voqea

¹⁹ <https://uniwork.buxdu.uz/resurs/>

tafsilotlarini anglashga undaydi. Ya'ni, Elchiyevning birdan o'zgarib qolganini, ayniqsa, u haqda birovga og'iz ocholmasligidan qandaydir tasodifiy, mudhish bir voqea ro'y berganini anglash mumkin. Tushkunlik kayfiyatidagi ohang asar boshidan to oxiriga qadar o'quvchi diqqatini o'ziga tortib turishi bilan ahamiyatli sanaladi. "Bu odam birdan o'zgarib qoldi. Hammaning ko'z o'ngida o'zgardi, butunlay o'zgardi. Yurish-turishi ham, atrofdagilarga munosabati ham avvalgidek emas. Go'yo avvalgi Nuriddin Elchiyev qayoqqadir g'oyib bo'lgan-u, uning qiyofasida boshqa kimsa yuribdi: rangu raftori o'sha-o'sha, lekin ichiga o'zga bir odam kirib olgan. Sirtidan qaraganda, tanish-bilishlari, xizmatdosh birodarlari uchun u hamon "O'rtoq Elchiyev", "Nuriddin Elchiyevich", oilasida ham azalgidek – ota, er. Illo – yo'q, yo'q, ilgari Elchiyev emas u, singan, portlagan, botinan portlagan. Neki bo'ldi, neki kechdi – yolg'iz o'ziga ayon, birovga og'iz ocholmaydi: nima deb aytadi, qanday aytsin?!"²⁰.

Ostiga chizib ko'rsatilgan nutq o'zganing nutqiga tegishli bo'lib, o'zgalarning Elchiyevga munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Ya'ni, umrini oilasiga bag'ishlagan Elchiyev o'z joniga qasd qiladi. Tasodifan tirik qolgach tanish-bilishlari uchun, oilasi uchun sirtidan qaraganda u avvalgidek ko'rinaveradi. Aslida mana shu baxtsiz voqea sababli butunlay boshqa odamga aylangan edi. Elchiyev ongida, ruhida o'z xayollari bilan kurash olib boradi. Hayotida kelajagiga yangi qadam qo'yishdan ko'ra borini asrab qolishni ma'qul ko'radi. Tavakkal qilishni xohlamaydi.

Erkin A'zam "Javob" qissaning bosh qahramoni Elchiyev orqali kommunistik mafkura ta'siriga tushgan, ya'ni insonning muteligini, ongli ravishda "ongsizligi", ruhiyatini, ichki kechinmalarini, qalb iztiroblarini, qo'rqqoqlik illatining qurbonini tasvirlab berdi. Xuddi shu tasvir Xurshid Do'stmuhammad ham uchraydi. Xurshid Do'stmuhammadning "So'roq" nomli qissasi "So'roqqa tutilmay turib, o'zlaringni o'zlaring so'roq qilinglar" deyilgan hadis bilan boshlanadi. Bu orqali yozuvchining maqsadi anglashiladi. Qissada bilvosita muallif nutqi tarkibida bir necha kishining nutqi chatishib ketgan. Bu esa, asar qahramoni holatini tasavvur qilishga, anglashga xizmat qiladi. Jumladan:

*"Bozor qorni och – qulog'i tinch ko'cha changitib yurgandi yallo qilib – uylandi-yu, baloga qoldi. Hay, endi, uylangani ham mayli-ya (bizning sharoitlarda yigit kishiga uylanishdan bo'lak yuksakroq orzu-havas qayerda!), traktorini tarillatib yuravermaydimi, do'ppini chakkasiga qo'ndirib!.. Yo'q, u odam quriganay Aminvoy guppining yo'rig'iga uchdi, paxta zavodiga yukchi bo'lib o'tdiy, "g'alva" otliq tubsiz jarning qoq o'rtasiga ikki oyoqlab sakradi-qo'ydi. Unday desa guppida nima gunoh? Bozorning o'zi, "Uylanishga uylandim-u, bo'g'zingacha qarzga botdim, aka", deya hasrat qildi. Guppi avvaliga labining bir chekkasi bilan bepisand kuldi – "Qarz uziladi – xotin yonga qoladi, jiyani", dedi dimog'idan qurt yog'ib. Maqolgami-matalgami o'xshab ketadigan bu hikmat ilgari Bozorning qulog'iga ko'-o'p xush yoqardi, mana, endi, uning ta'mini o'z og'zida tatiy boshlagach, hikmatning taxiri chiqib ketdi"*²¹. Ushbu misolda

²⁰ Аъзам Э. Кечикаётган одам. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 70- б.

²¹ Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011. – 208- б.

bilvosita muallif nutqi tarkibidagi *uylandi-yu, baloga qoldi, qo'ydi, deya hasrat qildi, bepisand kuldi, dedi dimog'idan qurt yog'ib* kabi iboralar muallifga tegishli bo'lib, qahramonning ruhiy holatini izohlagan. Bu yerda ikki qahramon suhbatlari orqali o'z fikriga ega bo'lmagan sodda, go'l yigit qiyofasi yaratilgan bo'lsa, Gupponing kulgisi orqali insonlarning soddaligidan foydalangan, xasis, qalbsiz "qarzdor" qilib qo'yganiga xursand "boy" tasvirlanadi. Bu uning ongsizligini anglatsa, "bepisand kulgi" ham ongsizlik belgisidir.

Erkin A'zam asarlari o'ziga xos yumoristik bayon uslubi, kinoyali tili, kutilmagan badiiy yechimlarga ega bo'lsa, Xurshid Do'stmuhammad bayon uslubi personajlarning kayfiyati, kechinmalari bilan bog'lab "sokin" tahlil etishi bilan ajralib turadi. Har ikki yozuvchi asarlarida muallif va personaj nutqi xuddi muallif personajning suhbatdoshiga, hamrohiga aylanganday bir-biriga juda yaqinlashib ketadi. Shu sababli voqelik bayoni va personajlar nutqida ham jonlilik, hayotiylik bo'rtib turadi. Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissalarida Sharq va G'arb ijodiy an'analari uyg'unlashgan holatlari kuzatiladi. Har ikki adibning muallif, personaj nutqi, monolog va diologlardan foydalanishlarida ham alohida uslubiy o'zgachiliklar ko'zga tashlanadi.

Dissertatsiyaning "**Ijodkorlarning uslubiy o'ziga xosligi**" deb nomlangan uchinchi bobida nuqtayi nazar, uslubiy o'ziga xosliklar, badiiy tasvir va uslub masalalari yoritilgan. Ushbu bobning "**Badiiy asarda nuqtayi nazar va xarakter ifodasi**" nomli birinchi faslida ijodkor uslubi va ularning o'ziga xosligi yoritilgan. Ijod tushunchasi insonga xos bo'lib, u ongning oliy darajasi sanaladi. Hayotda har bir sohaning o'z ijodkorlari bo'lgani kabi, badiiy adabiyotda ham ijodkorlar hayotning betakror namunasini yaratuvchilaridir. Hech bir narsaning aynan takrori bo'lmaganidek, yozuvchilar uslub nuqtayi nazaridan bir-birlarini takrorlamaydilar. Aslida ham, uslub – individual xususiyat hisoblanadi. Erkin A'zam ham, Xurshid Do'stmuhammad ham bir davrda ijod qilib, bir xil mavzu, bir xil voqeani tasvirlashsa-da, bu tasvirlarda ijodkorning o'zligi, uning uslubi yaqqol ajralib turadi. Shuningdek, badiiy asarda nuqtayi nazar va xarakter ifodasi, badiiy tasvir ijodkorlarning o'ziga xos uslublarini belgilab beruvchi muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da nuqtayi nazarning quyidagi ikki ma'nosi berilgan: 1) qarashlar sistemasi, voqea va hodisalarni anglash usuli; konsepsiya; 2) jihat, tomon²². Biz badiiy asarda nuqtayi nazar va xarakter ifodasini quyidagi to'rt xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkinligini kuzatdik:

- 1) muallif nuqtayi nazari;
- 2) "men" hikoyachining nuqtayi nazari;
- 3) o'zganing nuqtayi nazari;
- 4) qahramon nuqtayi nazari.

Muallif nuqtayi nazari asar qahramonlarining xarakterini aniqlashda asosiy vazifani bajaradi. Qahramonlar xarakterini yaratishda mahoratli yozuvchilar tomonidan turli usullar qo'llanilgan. Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammadlar

²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, учинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 10- б.

bu sohada ham o‘z uslubiga ega bo‘lgan ijodkorlar ekanliklarini namoyon etishdi. Har ikki adib asarlarida qaysi bir nuqtayi nazar turi bo‘lishidan qat’iy nazar qahramonlarning xarakteri badiiy asar davomida oydinlashib boradi. “Iste’dodi, shaxsiyati, shaxsiy (milliy va individual badiiy g‘oyasiga) badiiy konsepsiyasiga ega bo‘lmagan ijodkorning o‘z uslubi ham bo‘lishi mumkin emas. Demak, individual uslub bilan yozilmagan badiiy asar ham poetikaning azaliy talablariga javob bera olmaydi”²³. O‘zining individual uslubiga ega bo‘lgan har bir yozuvchi asardan ko‘zlagan maqsadidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos nuqtai nazarlarni ilgari suradi. Bu esa, asarning badiiylik jihatdan mukamallashuviga xizmat qiladi.

“Men” hikoyachi nuqtayi nazarida muallif voqealarni hikoya qilishda, munosabat bildirishda asar qahramonlaridan birining fikrlaridan foydalanib, shartli ravishda hikoya qilishni unga topshirib, uni yo‘naltirib, nazorat qilib turadi. “Men” hikoyachi nuqtayi nazari ilgari surilgan asarlar muallif “men”i hamda avtobiografik asarlardagi qahramon “men”idan farq qiladi. Erkin A‘zam ijodida bu nuqtayi nazar turi “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasida o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Xurshid Do‘stmuhammad “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz” nomli qissalarida badiiy nutqning epistolyar shaklidan foydalangan. Ma‘lumki, epistolyar usul asar qahramonlarining kimgadir yo‘llangan maktubi bo‘lib, g‘oyibona murojaat shaklida yoziladi. M.Baxtinning ta’kidlashicha, badiiy nutqning epistolyar shakli ham, “birinchi shaxs tilidan hikoya qilishning ko‘rinishlaridan biridir”²⁴. Shunga ko‘ra, adibning ushbu qissalarida nutqning epistolyar shakliga murojaati orqali nuqtayi nazarning “men” hikoyachi shakli qo‘llanilgan desak, xato bo‘lmaydi. “Men – sensiz, sen – mensiz” qissasi “Hijronim mingdir mening” qissasining mantiqiy davomi bo‘lganidek, asar badiiy nutqi ham shu shaklda davom etadi.

Muallif nutqi tarkibida kelib, berilayotgan axborotni o‘zga personajning qanday atashiga ko‘ra ifodalanishiga **o‘zganing nuqtayi nazari** deb qaraladi. Asar qahramonlarini o‘zganing yoki bir-birining nigohi bilan ko‘radi va tasvirlaydi. Shuningdek, o‘zganing nuqtai nazari muallifning bilvosita nutqi orqali ifodalanadi. Aslida ham o‘zganing nuqtai nazari qahramon nuqtai nazarining vazifasi kengayib borganligini ko‘rsatadi.

Qahramon nuqtayi nazari asar bosh qahramonining yoki asar qahramonlaridan birining voqea-hodisalarga, kishilarga, buyum va narsalarga bergan bahosi, bildirgan munosabati hisoblanadi. Qahramon nuqtayi nazarining yana bir muhim jihati shundaki, muallif nutqi tarkibiga qahramon nutqiga xos so‘z va iboralarning kirib kelishi va muallif fikri, qarashlari, munosabati bilan birlashib asardan ko‘zlangan g‘oyani ilgari suradi. Ayniqsa, bu xususiyat keyingi yillarda yaratilgan badiiy asarlarning o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Shuningdek, qahramon nuqtayi nazari alohida aniq bir personajning o‘ylari, ong oqimi orqali namoyon bo‘ladi.

²³ Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонкул мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – 28- б.

²⁴ Бахтин.М.М. Проблемы поэтики Достоевского, – М., 1963. – 274 с.

Erkin A'zam hamda Xurshid Do'stmuhammad qissalarida bir-biriga yaqin bir xil *haydovchi* kasbiga ega qahramonlar uchraydi. Bu Erkin A'zamning "Bayramdan boshqa kunlar" qissasidagi avtobus haydovchisi Bakir bilan Xurshid Do'stmuhammadning "Nigoh" qissasidagi tramvay haydovchisi Bek obrazlaridir. Bir xil kasb egalarining xarakterlari, olamni qanday idrok etishlari orqali har ikkala yozuvchining uslubiy yondashishlarini qiyoslash mumkin.

"Bayramdan boshqa kunlar" qissasida bolalikda uchishni orzu qilgan, ammo niyatiga yetolmay yerda qolib ketgan haydovchining ish-faoliyati davomida kechirgan bir talay sarguzashtlari muallif tomonidan hikoya qilinadi. "Nigoh" qissasida esa Bekning "Volga" mashinasi bilan bo'lgan to'qnashuvi va undan keyingi bo'lib o'tgan voqealar personaj qarashlari vositasida ifodalanadi.

Har ikki qissada asar mualliflar tomonidan hikoya qilinayotgandek tuyulsa-da, bu nutq bayoni tarkibiga qahramonlarning xatti-harakatlari, o'y-qarashlari, muomala-munosabatlari mohirlik bilan singdirib yuboriladi. Natijada har ikkala asarda ifodalanayotgan barcha voqea-hodisalar personajlar nuqtai nazari orqali ayon bo'layotgandek tuyiladi.

Xurshid Do'stmuhammad qissalarida qahramon nuqtayi nazari ifodalangan ko'p o'rinlarda yozuvchi tomonidan "**nazarida**" so'zidan foydalanish kuzatiladi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin: "Eng qizig'i, Bek ko'cha boshiga yetgunicha ikki-uch qayta cho'chib orqaga o'giriladi – **nazarida** ortidan kimdir izma-iz pisib kelayotganday, uni qadam-baqadam ta'qib etayotganday tuyuladi... har safar hech zog' ko'rinmaydi..."²⁵; "...**nazarida** Amakining so'l chekkasi mushtdek shishib chiqqanday ko'rindi"; "**nazarida** qo'lidagi qog'oz xaltani ayolga pisanda qilayotgandek tuyuldi"; "**nazarida**, Bek bu bilan butun aybni "Volga"ning haydovchisiga ag'dargandek bo'ldi"; "shu tobda Bekning **nazarida** o'zining jussasi loydan yasalgan g'olaga o'xshab ketdi..."²⁶.

"Bayramdan boshqa kunlar"da muallif nutqi juda ko'p o'rinlarda o'zga personajlarning ovozi bilan chatishib ketadi. To'g'rirog'i, asarda ishtirok etayotgan personajlar gapiradi – Bakir eshitadi, Bakir o'ylaydi – muallif tinglaydi. Ahyon-ahyonda muallif ajralib chiqib, o'z gapini aytadi. Shunda ham bu xulosada qahramonning so'zi, ovozi eshitilib turadi. Asar qahramonlari mavjud davrga xos xususiyatlarni o'zlarida mujassamlashtiradi va ular atrof-muhitga, jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissa qahramonlari timsolida inson sha'ni, o'zlik, ma'naviy komillikka erishishdagi fidoyi insonlar ustuvorlik qiladi.

Asar qahramonlari mavjud davrga xos xususiyatlarni o'zlarida mujassamlashtiradi va ular atrof-muhitga, jamiyatga ta'sir ko'rsatib, badiiy xarakter sifatida shakllanib boradi. Jumladan, Erkin A'zam va Xurshid Do'stmuhammad qissalari qahramonlari timsolida inson sha'ni, o'zlik, ma'naviy komillikka erishishdagi fidoyi insonlar ustuvorlik qiladi. Yuqorida xar ikki yozuvchi qissalarining xarakter darajasidagi qahramonlarning nutqiy xarakteristik jihatlari ko'rib chiqildi. Bunda badiiy asarga nisbatan "nuqtayi nazar" tushunchasi

²⁵ Dўstmuhammad X. Қисса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 28- б.

²⁶ Dўstmuhammad X. Қисса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 27, 37, 43, 52- бетлар.

asosiy omil vazifasini bajardi. Quyidagi jadval orqali qissalarning yaratilishiga ko‘ra davriy ketma-ketlikda qahramonlarining xarakter jihatidan umumiy sifatlarini tasniflaymiz:

Erkin A‘zam			Xurshid Do‘stmuhammad		
No	Qissalarning nomi	Xarakterlarning ko‘rinishlari	No	Qissalarning nomi	Xarakterlarning ko‘rinishlari
1.	“Otoyining tug‘ilgan yili”	Asqar Shodibekov – shartaki, soxtalik bilan chiqisha olmaydi	1.	“Nigoh”	Bek – vijdonli, mehnatkash, halol
2.	“Pakananing oshiq ko‘ngli”	Pakana – ko‘ngilchan odam, oshiq rassom	2.	“Panoh”	Ahmadali – o‘zini anglashga urinayotgan inson
3.	“Bayramdan boshqa kunlar”	Bakir – o‘zgaruvchan murakkab xarakter; Safura – ayblarini tan ola biladigan mard ayol; Ukkiboyev – manqutlashib borayotgan shaxs	3.	“Oromkursi”	Ko‘klam Tongotarov – mansabga intilgan, shuxratparast
4.	“Javob”	Nuriddin Elchiyev - amalga qiziqmaydi, qaysar, o‘z bilganidan qolmas	4.	“Chayongul yoxud quyiqlik qotillik”	Chaman momo – jonkuyar, mehribon; Gulshod – samimiy ayol; Gulgun – alamzada ayol
5.	“Shoirning to‘yi”	Noma‘lum shaxs – sotsialistik tuzum qurbonlarining tipik obrazi; Oqsaqol – ikkiyuzlamachi, soxta do‘st Mafkuraxonim – ma‘naviyatsiz madaniyat xodimi	5.	“So‘roq”	Bozor – sodda, ishonuvchan
6.	“Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati”	Erkin aka – sotsialistik jamiyat vakillari	6.	“Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, Sen – mensiz”	Oshiqlar: Yigit Qiz – qalbi pok
7.	“Guli - guli”	Maymun (Mo‘min kal) – odamkushning pushtikamaridan bo‘lgan maxluq	7.	“Kuza...”	Umid – zamonaviy, mehribon, kuzatuvchi

Bobning ikkinchi fasli **“Badiiy tasvir va uslub (portret, peyzaj, ruhiy holat)”** deb nomlangan bo‘lib, unda badiiy asarlarda bo‘lib o‘tadigan voqea-hodisalar, his-tuyg‘ularning jonli hamda ta’sirchanligini oshirishda badiiy tasvirning o‘ziga xos o‘rni va roli tadqiq etilgan. Badiiy tasvir juda keng tushuncha sanalib, asar uslubining muhim jihatlarini belgilab beradi. “Badiiy asar uslubi faqat uning tiliga oid hodisa emas, balki tasvir vositalari, badiiy so‘z orqali ifodalangan

badiiy asarning mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi kabi unsurlariga ham taalluqlidir”²⁷. Nazariy jihatdan olib qaraganda, badiiy tasvir vositalari alliteratsiya, assonans, arxaizm, dialektizm, jargon, inversiya, so‘z takrori, sintaktik parallelizm kabi til elementlaridan iboratdir. Qolaversa, badiiy asar ta’sirchanligini oshirishning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu, ruhiy holat, ya’ni badiiy psixologizm sanaladi. Badiiy asarlarda bu tushuncha psixologik metod orqali aniqlashadi. “Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (monolog, xotira, assotsiatsiyalar va tasavvur obrazlari) va tashqi (mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko‘rinish holatlarining hissiy o‘ziga xosligini namoyon qilish) formalariga ajratish mumkin”²⁸. Shuningdek, qahramon ruhiyatini ochib berishda badiiy nutq tiplaridan personaj, monolog va dialoglar ham psixologik tahlilning ichki turlari sifatida ko‘rinadi.

Erkin A‘zam hamda Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida ham ko‘p hollarda peyzaj qahramon kayfiyatidan kelib chiqib tasvirlangan. Fikrimizni isbotlash uchun Erkin A‘zamning “Bayramdan boshqa kunlar” qissasining bosh qahramoni Bakirni olaylik. U “huv bolalik orzusini ” (uchuvchi bo‘lish) eslaganida tashvishlari juda mayda, o‘rtanishga arzimasligini angladi-yu, ko‘nglida “sham, oftob” charaqlagandek bo‘ldi. Erkin A‘zam uslub jihatdan adabiyotda o‘ziga xoslikni yarata olgan adibdir. Uning asarlarida qisqalik, keskin ifoda, dangallik, “erkincha so‘zlash” o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega yozuvchi Erkin A‘zamning badiiy nutq va uslub poetikasini ochib bera olgan.

Qissalarda epik bayon ya’ni voqea va hissiy xolat, ruhiyatning uyg‘unligi asarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Nisbiylik tamoyiliga ko‘ra, tasvirda ikkisidan biri ustunlik qiladi. Misol uchun Erkin A‘zam qissalarida voqea ustunlik qilsa, Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida ruhiy holat tasviri ustunlik qiladi. Shunga qaramay, Erkin A‘zamning qahramonlari shunchaki o‘ylab topilgan emas, balki ular jonli, ba‘zan ongning, ba‘zan o‘y-orzulari, hayotiy maqsadlari yo‘lida o‘zligini topib, ba‘zan yo‘qotayotgan, gohida o‘zligidan ham, dunyodan ham voz kechish arafasida yashayotgan kishilar bo‘lib gavdalanadi. Yozuvchining “Javob” qissasi qahramoni sifatida ojiz, kamtar, kamsuqum va mute odam obrazining tanlab olinishi o‘z vaqtida ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan edi. Chunki o‘sha davr adabiy an‘analariga muvofiq asar qahramoni kurashuvchan, jamiyatning faol kishisi bo‘lishi kerak edi. E.A‘zam esa Elchiyev timsoli orqali inson ruhiyatining keng va chuqur qirralarini badiiy inkishof etadi. Adabiyotning bosh vazifasi insonni, uning ichki iztiroblari, o‘y-xayollari, orzu-armonlarini tadqiq etish ekanligini isbot qiladi.

Adabiyotda qahramon “men”ini tasvirlash, ongidagi evrilishlarni ko‘rsatish uchun qahramon nutqi, ruhiy-ma’naviy olami ifodasi muhim o‘rin tuta boshladi. Bu holat, ayniqsa, keyingi davr o‘zbek adabiyotining iste’dodli adiblaridan biri Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida ham o‘zining yorqin ifodasini topadi. Xurshid Do‘stmuhammadning tasvir uslubi ham boshqa ijodkorlar uslubidan tubdan farq

²⁷ Жирмунский В. Стихотворение Гёте и Байрона: Ты знаешь край? Изд. МГУ, 1961. – 29 стр.

²⁸ Тулабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. –17- б.

qiladi. “Adib asarlaridagi bu kabi tasvir uslubi o‘zbek adabiyotida hayot hodisalari va odam obrazini gavdalantirish, insonning ichki olamiga kirib borishda dadil izlanishlar kechayotganidan darak beradi...”²⁹. Shuningdek, uning qahramonlari haqiqiy hayotda yashayotgan oddiy dehqon, tramvaychi, qishloq odami, yosh izlanuvchilar kabi insonlardan iborat. Asarlarining qahramonlari oddiy bo‘lishiga qaramay, yozuvchi o‘z uslubi orqali ularni tom ma’nodagi qahramonlarga aylantira olgan. Ularning ichki dunyosini to‘liq ochib bergan.

Xurshid Do‘stmuhammad o‘z qissalari bilan hozirgi zamonaviy milliy modern qissa janrida ko‘plab yangilanishlar qila oldi. Umuman olganda Xurshid Do‘stmuhammad o‘zi aytganidek, asarlarida qahramonning “orzu-armon-pushaymon-umid oralig‘idagi botiniy ziddiyatlar”ini aks ettirishga alohida e’tibor beradi. Bu oqibatda uning qahramoni ichki va tashqi olami (surati va siyrati)ni tasvirlashda asosiy uslubiga aylanadi.

Biz ushbu dissertatsiyada E.A’zam va X.Do‘stmuhammad qissalarida badiiy nutq poetikasi va uslubiga xos eng muhim xususiyatlarni aniqlashga harakat qildik. Aslida bu adiblarning ijodida voqelikning sirtqi tomoniga emas balki uning mohiyatiga badiiy tasvir usullarining rang-barangligi, tabiiyligi va ta’sirchanligiga e’tibor kuchaymoqda. Umid qilamizki, qissachilikda namoyon bo‘layotgan bu xususiyatlar kelgusi tadqiqotlarda o‘z aksini topadi.

²⁹ Улуғов А. Қирқ йил қиссалари ёхуд фикрчан одамлар олами. // Дўстмуҳаммад Х. Қисса. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2021. – 11- б.

XULOSA

1. O‘zbek adabiyotida qissa janri uzoq tarixga ega bo‘lib, o‘rta asrlardagi “xalq kitoblari” kabi yozma manbalar zamonaviy qissa janri uchun asosiy manba, tajriba maktabi vazifasini o‘tadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti qissachiligidagi yangilanishlar, qissalardagi qamrov ko‘lamining kengligi, shakl va mazmundagi o‘ziga xos rang-barangliklar bilan badiiy-estetik jihatdan taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi.

2. Tadqiqot jarayonida hozirgi o‘zbek adabiyoti qissachiligining yangilanish tamoyillari E.A’zam va X.Do‘stmuhammad qissalarida inson tabiatining butun murakkabligi bilan boricha aks ettirish, jahon adabiyoti an‘analarini sintez qilish, qahramon va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni kinoya usulida ochib berish, ramziy-majoziy ifoda usullari asosida yoritilganligi isbotlandi.

3. E.A’zam hamda X.Do‘stmuhammadning deyarli barcha qissalarida ikki ovozli hikoya qilish, ko‘p ovozli bayon, ohanglar xilma-xilligi va iboralarning zarbli, ritmik siqqlik uslubida ifodalanishi nutq tiplari va uning shakllari hozirgi o‘zbek qissalarining rang-barangligini ta‘minlaydi. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati”, “Nigoh”, “Oromkursi”, “Katta ko‘cha” kabi qissalarda monologik qissaxonlik nutq uslubi ustunlik qiladi.

4. “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Nigoh” asarlarida badiiy nutqning dialog tipi, ayniqsa, tavsifiy dialog turi va uning jonli, xayoliy (tasavvurdagi), ichki singari shakllari qo‘llanganligi, “Panoh” qissasida esa bahs-dialog, “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz”da epistolyar nutq ko‘rinishlari yozuvchilar ijodiy individualigi tadqiq etildi.

5. E.A’zam qissalarida muallif va personaj nutqi bir-biriga yaqin, xuddi, muallif personajning suhbatdoshi, hamrohidek tasvirlanadi. Qolaversa, badiiy bayon uslubi o‘zining soddaligi, ixchamligi va xalqonaligi, dabdabali, balandparvoz, ko‘tarinki ruhdagi iboralarning kam qo‘llanilgani bilan ajralib turadi.

6. E.A’zam uslubiga xos shartakilik, har turli sipogarchilik, andozalardan holilik, tabiiylik “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasida ustun tursa, X.Do‘stmuhammad uslubida fikrchanlik, mantiqiylik “So‘roq”, “Kuza” qissalarida ko‘rinadi.

7. E. A’zam qissalarining o‘ziga xos yumoristik bayon uslubi, kinoyali tili, kutilmagan badiiy yechimlar, ayniqsa “Otoyining tug‘ilgan yili”, “Javob” qissalarida, “Pakananing oshiq ko‘ngli”da hatto kinoya va parodiya darajasiga olib chiqiladi. X.Do‘stmuhammadning bayon uslubini personajlarning kayfiyati, kechinmalari bilan bog‘lab “sokin” tahlil etilishi adib qalamiga mansub barcha qissalarida aks etadi.

8. E.A’zam va X.Do‘stmuhammad qissalarini o‘rganish jarayonida nuqtayi nazarning quyidagi turlarini aniqladik:

- 1) muallif nuqtayi nazari;

- 2) “men” hikoyachining nuqtayi nazari;
- 3) o‘zganing nuqtayi nazari;
- 4) qahramon nuqtayi nazari.

Bu turlarning har biri E.A’zam va X.Do‘stmuhammaddan olingan misollar asosida isbotlab berildi.

9. E.A’zam o‘zbek adabiyoti qissachiligida birinchilardan bo‘lib muallif nutqi bayoniga qahramon ovozini olib kirdi, uning so‘zlarini qo‘lladi. Ayni chog‘da, bu chatishuv bayon ohangini, nutq manerasini, ohang yo‘nalishini bir tizimga solib, yozuvchi uslubining o‘ziga xosligini belgiladi.

10. X. Do‘stmuhammad qissalarida qahramon “men”ini ustuvor tarzda tasvirlash, ongidagi evrilishlarni ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. Ayni chog‘da uning qissalarida davr ruhiga mos ravishda ekspressivlik, tig‘izlik, ixchamlik kabi fazilatlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

**SCIENTIFIC COUNCIL № DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AWARDED
ACADEMIC DEGREES AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

MUMINOVA TABASSUMKHON SIDDIKJONOVNA

**ARTISTIC SPEECH AND POETICS OF STYLE
IN MODERN UZBEK STORIES**

(Erkin Azam and Khurshid Dostmukhammad
in the case of stories)

10.00.02 – Uzbek literature

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY
(PhD) IN PHILOLOGICAL SCIENCES**

Ferghana – 2023

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in philological sciences is registered in the Higher Attestation Commission with the number B2021.4.PhD/Phil2069.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Fergana State University www.fdu.uz and on the informational-educational portal "Zionet" www.zionet.uz.

Supervisor: **Yuldoshkhuja Solijonov,**
doctor of philological sciences, professor.

Official Opponents: **Rasulova Umida Yo'ldosh qizi**
doctor of philological sciences.
Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich
candidate of philological sciences,
associate professor.

Leading organization: **Andijan state university**

¹¹⁰⁰ The defense of the dissertation will be held on «23» 05 2023, at a meeting of Academic Council DSc.03/30.12.2020.Phil.05.02 under Fergana State University. (Address: 105, B.Marg'inoniy str., Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-66-02; fax.: (873) 244-44-02; fax: (+993873) 244-44-01 ; e-mail: fardu_info@umail.uz).


The dissertation is available in the Information Resource center of Fergana State University (registered under № 162). (Address: 19, Murabbiylar Str., Fergana, 100151. Tel.: (99873) 244-71-28)

The abstract of the dissertation is distributed on «10» 05 2023.
(Digital register protocol № 13 dated «10» 05 2023).




Sh.M. Iskandarova
Chairman of the Academic Council for awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor


M.T. Zokirov
Secretary of Scientific Council awarding scientific degree, Candidate of Philological sciences, professor


Z.B. Kabilova
Chairman of the scientific seminar under the Academic Council for awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences, professor.

INTRODUCTION (abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. The need to study and understand the problems related to the analysis of a work of art in terms of literary speech and style in world literary studies puts the task of solving important and serious issues before our literary studies. It is important to study the writer's artistic skill, the language and style of the artistic work in the scope of a known genre, including the story genre.

In world literature since the middle of the 20th century, more attention was paid to the reality, deep analysis of the human psyche, and understanding the essence of life in the short story genre, which was the leader after the novel. The structure, images, conflict, psychological analysis, artistic and pictorial means and scope of the works created in this genre.

The width determines the renewal principles of the genre. Naturally, this current literary process, the correct approach to the work of art, the understanding of the narrative genre of prose and its art, creates the need for specific theoretical knowledge and skills in literary studies.

In Uzbek literary studies, as a direct reflection of the changes in society's thinking in today's globalization period, it shows the importance of studying the principles of renewal of the short story, the issues of artistic speech and style poetics, and the stylistic peculiarities of creators.

Since the last quarter of the 20th century, Uzbek national literature has reached a new stage of artistic and aesthetic development. This, of course, is a phenomenon directly related to the development of the national thinking of our society due to independence. The socio-spiritual development of society depends on the development and scope of literature. If we look at our national history of the 20th century, the role of literary scholars in it, as well as the attitude towards them, has been steadily increasing. To date, the President of the Republic of Uzbekistan has stated that "in order to preserve our national identity, to raise the self-esteem of our people, and through this, to promote the consistent development of our country, we must first of all support the fields of literature, culture and art."³⁰ from his opinions, it can be understood that literature is becoming more relevant than ever.

No.PQ-3652 Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 5, 2018 "On measures to further improve the activities of the Writers' Union of Uzbekistan", Presidential Decree No.PQ-3775 of June 5, 2018 "On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms implemented in the country", Decree PF-6097 dated October 29, 2020 "On approving the concept of development of science until 2030", PQ-5188 of July 19, 2021 "On further development of president, creativity and specialized schools" and other regulatory legal documents related to this activity.

³⁰ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – Б. 2.

Compatibility of the research with the priority directions of the development of science and technology of the republic. This study was carried out in accordance with the priority direction of the Republic of Science and Technology Development "Formation of the system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the informed society and the democratic state".

The level of study of the problem. In world literary studies, many studies have been made on poetics, speech and style issues, genre features of short stories since BC. In particular, Platon, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin, V.M.Golovko, V.Kojinov, L.S.Lixachev, N.D.Tamarchenko, L.B.Chernets, G.L.Abramovich, V.YE.Xalizev, M.B.Xrapchenko researched this issue deeply in their works³¹. Recently a number of scientific works have been carried out on the scale of world literature on this issue³².

The issue of speech and style in Uzbek literary studies has been reflected in the work of Alisher Navoi, Fitrat and Cholpon. By the 20th-21st centuries, M. Koshjanov, I. Sultan, S. Mamajonov, Y. Solijanov, G. Imomova made their significant contribution to the creation of the theoretical foundations of speech and style³³. In the textbooks, monographs and special studies of scholars such as I. Sultan, M. Koshjanov, O. Sharafiddinov, U. Normatov, A. Rasulov, B. Nazarov, H. Boltaboev, A. Rahimov, D. Kuronov, B. Karimov, U. Hamdamov, U. Zhorakulov the problem of poetics, features of prose, issues related to speech and style were studied.³⁴

³¹ Афлотун. Давлат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 464 б.; Арасту.Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – 352 б.; Гегель. Эстетика. Биринчи жилд. Рус тилидан М.Абдуллаев таржимаси. – Фарғона. 2011. – 360 б.; Белинский В.Г. Собрание сочинений. Т.3. – М., 1978. – 271 б.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – 614 б.; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – 240 б.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худ.лит-ра, 1975. – 502 с.; Головки В.М. Поэтика русской повести. – Саратов: 1992. – 276 б.; Кожин В. Повесть. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 272; Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – М.: Худ.лит-ра, 1984. – 314 б.; Тамарченко Н.Д. Теория литературы / Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003; Чернец Л.Б. Введение в литературоведение. – М.: Высшая школа, 1976; Абрамович Г. Л. Введение в литературоведение. – М.: Учпедгиз, 1956; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – 397 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – 407 с.

